| TIJORAT BANKLARIDA MARKETING FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH VA UNING AMALIY IMKONIYATLARI.....                                       | 963 |
| <i>Ibragimova Shahlo Alimbayevna</i>                                                                                                |     |
| ЗАКОНОМЕРНОСТИ ДЕСУЛЬФУРАЦИИ МЕТАЛЛА ШВА В ЗАВИСИМОСТИ ОТ СОСТАВА ШЛАКООБРАЗУЮЩЕЙ ОСНОВЫ ФЛЮСОВ .....                               | 969 |
| <i>Абралов Музаффар Махмудович</i>                                                                                                  |     |
| РОЛЬ СТРОИТЕЛЬНОЙ ОТРАСЛИ В ОБЕСПЕЧЕНИИ ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА И ИННОВАЦИОННОЙ МОДЕРНИЗАЦИИ ЭКОНОМИКИ .....                           | 975 |
| <i>Бахрамов Зиядулла Баходирходжаевич</i>                                                                                           |     |
| QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARINING INNOVATSION RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....             | 979 |
| <i>Yuldasheva Mexrunisa Qasimjan qizi</i>                                                                                           |     |
| OLIY TA'LIM SOHASINI DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGI ASOSIDA TRANSFORMATSIYA QILISHNING INSTITUTSIONAL VA ME'YORIY-HUQUQIY ASOSLARI ..... | 984 |
| <i>Abdullayev Javohir Abdumalik o'g'li</i>                                                                                          |     |



|                                                                                                                                                                                               |      |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------|
| XORIY TAJRIBASI ASOSIDA O'ZBEKISTONDA DAVLAT AKTIVLARI BO'YICHA INTERAKTIV MA'LUMOTLAR BAZASINI YARATISH ORQALI BUDJET XARAJATLARINI TAHLIL QILISH IMKONIYATLARINI KENGAYTIRISH.....          | 989  |
| <b>Dilshod Pulatov, Gulzara Kaxxarova</b>                                                                                                                                                     |      |
| TEMIR YO'L TRANSPORTINI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI .....                                                                                    | 994  |
| <b>Raximov Xasan Shukurjonovich</b>                                                                                                                                                           |      |
| KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARI .....                                                                                                      | 1000 |
| <b>Yuldashev Doniyor Tairovich</b>                                                                                                                                                            |      |
| PENSIYA JAMG'ARMALARIDA HISOBNI TASHKIL ETISH VA XARAJATLAR SMETASI IJROSI BO'YICHA HISOBOTI TAHLILI .....                                                                                    | 1005 |
| <b>Nurmanov Karjavbay Tilevbaevich, Nurmanov Din-Axmed Tilevbaevich</b>                                                                                                                       |      |
| MINTAQA SANOAT KORXONALARIDA IQTISODIY MEXANIZMLARNI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....                                                                                         | 1011 |
| <b>Axmedova Xumora Ibroxim qizi</b>                                                                                                                                                           |      |
| ELEKTR MARKAZLASHTIRISH TIZIMIDAGI BOSHQARISH VA NAZORAT RELELI BLOKINI (P62) ZAMONAVIY, KONTAKTSIZ ELEMENTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH HAMDA UNING MATEMATIK MODELINI ISHLAB CHIQUISH ..... | 1015 |
| <b>Xujamkulov Eldor G'ayratjon o'g'li</b>                                                                                                                                                     |      |
| KLASTERLAR FAOLIYATIDA DAVLAT QO'LLAB-QUVVATLASHI VA INVESTORLAR ROLI .....                                                                                                                   | 1026 |
| <b>Karimova Nilufar Sadriddin qizi</b>                                                                                                                                                        |      |
| ИССЛЕДОВАНИЯ И РАЗРАБОТКИ ШЛАКООБРАЗУЮЩЕЙ ОСНОВЫ ПОКРЫТИЙ ЭЛЕКТРОДОВ ДЛЯ ИЗНОСОСТОЙКОЙ НАПЛАВКИ НА БАЗЕ МИНЕРАЛЬНО-СЫРЬЕВЫХ РЕСУРСОВ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....                               | 1030 |
| <b>Садыков Жахонгир Насырджанович</b>                                                                                                                                                         |      |
| RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA QURILISH SANOATINING INVESTITSION JOZIBADORLIGI .....                                                                                                      | 1039 |
| <b>Boltayev Umidjon Talant o'g'li</b>                                                                                                                                                         |      |
| ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНФРАКРАСНЫХ ДАТЧИКОВ И ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В КОНТРОЛЕ КАЧЕСТВА ЗЕРНОВЫХ ПРОДУКТОВ .....                                                                                  | 1044 |
| <b>Мухамедханов Улугбек Тургудович</b>                                                                                                                                                        |      |
| MINTAQA IQTISODIYOTINING IQTISODIY RIVOJLANISHINING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI .....                                                                                                            | 1049 |
| <b>Qodirov Farrux Ergash o'g'li</b>                                                                                                                                                           |      |
| TIJORAT BANKLARIDA SUN'IY INTELLEKT VA BIG DATA ASOSIDA INNOVATSION XIZMATLARNI JORIY ETISH .....                                                                                             | 1054 |
| <b>Nuriddinov Ziyovuddinxon Zuxriddin o'g'li</b>                                                                                                                                              |      |
| ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЕ УПРАВЛЕНИЕ ПРОЦЕССАМИ РАЗДЕЛЕНИЯ НА ОСНОВЕ БАЗ ЗНАНИЙ И ЦИФРОВЫХ МОДЕЛЕЙ .....                                                                                               | 1059 |
| <b>Абдуллева Камола Рустамовна</b>                                                                                                                                                            |      |
| MATERIALLARNI MURAKKAB YASSI TRAEKTORIYALAR BO'YICHA DEFORMASIYALANTIRISHDA PLASTIK DEFORMASIYALANISH JARAYONLARI .....                                                                       | 1065 |
| <b>A.Xakimov, X.Xakimov</b>                                                                                                                                                                   |      |
| ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ АВТОМОБИЛЬНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ЭКОНОМИКИ .....                                                          | 1073 |
| <b>Касымова Нозима Омиловна</b>                                                                                                                                                               |      |
| OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI TA'MINOT ZANJIRINI TAKOMILLASHTIRISHNING XORIY TAJRIBASI .....                                                                                                        | 1077 |
| <b>Bekjanov Dilmurad Yo'ldashovich</b>                                                                                                                                                        |      |



|                                                                                          |      |
|------------------------------------------------------------------------------------------|------|
| AUDITORLIK TEKSHIRUVINI REJALASHTIRISH USLUBIYATINI TAKOMILLASHTIRISH<br>MASALALARI..... | 1082 |
| Saidova Sevara Abdimumin qizi                                                            |      |
| TIBBIYOT XODIMLARI MEHNAT FAOLLIGINI RAG‘BATLANTIRISHNING IQTISODIY<br>JIHATLARI.....    | 1089 |
| Sayitbayev Shermirza Datkamirzayevich                                                    |      |



# TIBBIYOT XODIMLARI MEHNAT FAOLLIGINI RAG'BATLANTIRISHNING IQTISODIY JIHATLARI

**Sayitbayev Shermirza Datkamirzayevich**

Namangan davlat texnika universiteti professori

E-mail: [xulugbek1984@gmail.com](mailto:xulugbek1984@gmail.com)

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada tibbiyot muassasalari xodimlarining mehnat faolligini oshirishda rag'batlantirish mexanizmlarining iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyati kompleks tarzda tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida sog'liqni saqlash tizimida ish haqi darajasi, tarif setkalari, qo'shimcha ustamalar hamda institutsional islohotlarning tibbiyot xodimlari mehnat motivatsiyasiga ta'siri yoritib beriladi. Mehnatga haq to'lashning yetarli darajada bo'lmashligi natijasida yuzaga keladigan mehnat faolligining pasayishi, norasmiy to'lovlar va korrupsion holatlar o'rtasidagi bog'liqlik ilmiy jihatdan asoslanadi. Shuningdek, davlat va xususiy tibbiyot muassasalari o'rtasidagi ish haqi tafovutlari, kadrlar yetishmovchiligi, hududiy nomutanosibliklar hamda malakali mutaxassislarni rag'batlantirish bilan bog'liq muammolar tahlil qilinadi. Maqolada O'zbekistonda so'nggi yillarda sog'liqni saqlash tizimida amalga oshirilgan normativ-huquqiy islohotlar, davlat tibbiy sug'urtasining joriy etilishi hamda raqamli boshqaruv mexanizmlarining mehnat samaradorligini oshirishdagi roli baholanadi. Tadqiqot natijalari tibbiyot xodimlari mehnatini adolatli va natijaga yo'naltirilgan rag'batlantirish tizimini takomillashtirish sog'liqni saqlash xizmatlari sifati va tizim barqarorligini ta'minlashning muhim sharti ekanligini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** tibbiyot xodimlari, mehnat faolligi, mehnat motivatsiyasi, rag'batlantirish tizimi, ish haqi, tarif setkasi, qo'shimcha ustamalar, sog'liqni saqlash tizimi, korrupsiya, kadrlar yetishmovchiligi, xususiy tibbiyot, davlat tibbiy sug'urtasi.

**Abstract.** This article provides a comprehensive analysis of the economic and social significance of incentive mechanisms in enhancing the labor activity of healthcare workers. The study examines the impact of wage levels, tariff scales, additional allowances, and institutional reforms on labor motivation within the healthcare system. It substantiates the relationship between inadequate remuneration, declining labor activity, informal payments, and corruption risks. Furthermore, the paper analyzes wage disparities between public and private healthcare institutions, workforce shortages, regional imbalances, and challenges related to motivating highly qualified medical professionals. Special attention is given to recent regulatory reforms in Uzbekistan's healthcare system, the introduction of state health insurance, and the role of digital management mechanisms in improving labor efficiency. The findings indicate that improving a fair and performance-oriented incentive system for healthcare workers is a crucial prerequisite for enhancing the quality of healthcare services and ensuring the sustainability of the healthcare system.

**Keywords:** healthcare workers, labor activity, work motivation, incentive system, wages, tariff scale, additional allowances, healthcare system, corruption, workforce shortage, private healthcare, state health insurance.

**Аннотация.** В статье комплексно анализируется экономическое и социальное значение механизмов стимулирования труда медицинских работников в повышении их трудовой активности. В рамках исследования рассматривается влияние уровня заработной платы, тарифных сеток, дополнительных надбавок и институциональных реформ на мотивацию труда работников системы здравоохранения. Научно обоснована взаимосвязь между недостаточным уровнем оплаты труда, снижением трудовой активности, распространением неформальных платежей и коррупционных проявлений. Также анализируются различия в оплате труда между государственными и частными медицинскими учреждениями, проблемы дефицита кадров, территориальные диспропорции и вопросы стимулирования квалифицированных специалистов. В статье оценивается роль нормативно-правовых реформ, внедрения государственной медицинской страховки и цифровых механизмов управления в повышении эффективности труда в системе здравоохранения Узбекистана. Результаты исследования подтверждают, что формирование справедливой и ориентированной на результат системы стимулирования труда является ключевым фактором повышения качества медицинских услуг и устойчивости системы здравоохранения.

**Ключевые слова:** медицинские работники, трудовая активность, мотивация труда, система стимулирования, заработная плата, тарифная сетка, дополнительные надбавки, система здравоохранения, коррупция, дефицит кадров, частная медицина, государственное медицинское страхование.



## KIRISH

Sog'liqni saqlash tizimi jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlovchi asosiy ijtimoiy institutlardan biri bo'lib, uning samaradorligi bevosita tibbiyot muassasalari xodimlarining mehnat faolligi bilan belgilanadi. Tibbiyot xodimlari faoliyati nafaqat jismoniy, balki yuqori darajadagi ruhiy mas'uliyat, doimiy kasbiy tayyorgarlik va professional hushyorlikni talab etadi. Shunday sharoitda mehnat natijalarining munosib rag'batlantirilishi xodimlarning kasbiy qoniqishi, xizmatlar sifati va bemorlar ishonchini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Mehnat faolligi moddiy va nomoddiy rag'batlar bilan tizimli qo'llab-quvvatlanganda, kasbiy motivatsiya barqarorlashadi va sog'liqni saqlash tizimi samaradorligi izchil ravishda oshadi.

Bozor munosabatlari chuqurlashib borayotgan hozirgi sharoitda tibbiyot xodimlarini rag'batlantirish masalasi yanada dolzarblashmoqda. Davlat tibbiyot muassasalarida ish haqi darajasini takomillashtirish, tarif setkalari va qo'shimcha ustamalar tizimini moslashuvchan qilish bo'yicha olib borilayotgan ishlar kadrlar salohiyatidan samarali foydalanish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Xususan, rag'batlantirish mexanizmlarining yangilanishi malakali kadrlarning kasbiy rivoji, hududlar kesimida muvozanatli bandlik va mehnat faolligining barqaror taqsimlanishiga xizmat qilmoqda. Bu esa tibbiy xizmatlar sifati va aholining sog'liqni saqlash tizimidan foydalanish imkoniyatlarini yaxshilashga zamin yaratadi.

Shuningdek, mehnatga haq to'lash va rag'batlantirish tizimini izchil takomillashtirish norasmiy munosabatlar va korrupsion xavflarni oldini olishda muhim profilaktik omil bo'lib xizmat qiladi. Shaffof va natijaga yo'naltirilgan rag'batlantirish mexanizmlari tibbiy xizmatlarning adolatli taqsimlanishini ta'minlaydi, aholining ijtimoiy himoya tizimiga bo'lgan ishonchini kuchaytiradi hamda tizimning institutsional barqarorligini mustahkamlaydi. Shu bois tibbiyot xodimlari mehnatini rag'batlantirishni faqat ish haqi oshirish bilan cheklab qo'ymasdan, mehnat natijasiga asoslangan kompleks motivatsiya mexanizmlarini joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Mazkur sharoitda sog'liqni saqlash tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmlarining joriy etilishi, xususiy sektor ulushining kengayishi hamda raqamli boshqaruv tizimlarining tatbiqi tibbiyot xodimlari mehnat faolligini oshirish uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Bu jarayonlar mehnat samaradorligini oshirish, resurslardan oqilona foydalanish va xizmatlar sifati yaxshilashga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, tibbiyot muassasalari xodimlari mehnat faolligini oshirishda rag'batlantirishning o'rni va uning iqtisodiy mexanizmlarini ilmiy asosda tadqiq etish mazkur maqolaning asosiy yo'nalishini belgilaydi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tibbiyot xodimlari mehnat faolligini oshirish va ularni rag'batlantirish masalalari xorijiy hamda mahalliy ilmiy tadqiqotlarda keng yoritilgan. Xususan, xorijiy tadqiqotchilar tomonidan sog'liqni saqlash tizimida ish haqi, mehnat motivatsiyasi va xizmatlar sifati o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlashga qaratilgan ilmiy izlanishlar muhim ahamiyat kasb etadi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti tomonidan tayyorlangan tadqiqotlarda tibbiyot xodimlarini adolatli va barqaror rag'batlantirish tizimi inson resurslarini saqlab qolish hamda tibbiy xizmatlar sifati oshirishning asosiy omillaridan biri sifatida baholanadi [1]. Ushbu yondashuv doirasida ish haqi bilan bir qatorda kasbiy rivojlanish imkoniyatlari, ijtimoiy himoya va mehnat sharoitlari ham muhim motivatsion omillar sifatida ko'riladi.

Xalqaro mehnat tashkiloti tadqiqotlarida davlat sektorida faoliyat yuritayotgan tibbiyot xodimlari mehnatini rag'batlantirishda tarif setkalari va qo'shimcha ustamalarning samaradorligi tahlil qilingan. Ushbu ishlarda ish haqi tizimining mehnat bozori sharoitlariga moslashtirilishi kadrlar barqarorligini ta'minlash va mehnat faolligini oshirishga xizmat qilishi ta'kidlanadi [2]. Shuningdek, Markaziy Osiyo mamlakatlari misolida olib borilgan tadqiqotlar sog'liqni saqlash sohasida institutsional islohotlar bilan bir qatorda mehnat motivatsiyasini kuchaytirishga qaratilgan mexanizmlarni uyg'unlashtirish kutilgan natijalarga erishishda muhim ekanligini ko'rsatadi.

O'zbekiston sog'liqni saqlash tizimi bo'yicha amalga oshirilgan xorijiy tahlillarda Sebastyan Peruz tomonidan tayyorlangan tadqiqotlar alohida e'tiborga loyiq. Uning ishlarida tibbiyot xodimlari mehnatini rag'batlantirish masalalarining inson omiliga qaratilgan jihatlari atroflicha yoritilib, moddiy rag'batlar va institutsional mexanizmlar o'rtasidagi bog'liqlik ilmiy jihatdan asoslab berilgan [3]. Muallif sog'liqni saqlash tizimida texnika va texnologiyalarni modernizatsiya qilish bilan birga, inson resurslariga yo'naltirilgan rag'batlantirish mexanizmlarini izchil takomillashtirish zarurligini ta'kidlaydi.

Mahalliy olimlar tadqiqotlarida ham mazkur masala keng tahlil qilingan. Jumladan, O'zbekiston iqtisodchilimlarining ishlarida sog'liqni saqlash xizmatlarining ijtimoiy ne'mat sifatidagi xususiyatlari, davlat tomonidan moliyalashtirish va ish haqi siyosati o'rtasidagi muvozanat masalalari chuqur o'rganilgan [4]. Ushbu tadqiqotlarda ish haqini bosqichma-bosqich oshirish bilan birga, mehnat natijalariga asoslangan samarali rag'batlantirish tizimini joriy etishning muhimligi asoslab beriladi.



Shuningdek, normativ-huquqiy hujjatlar tahlili ham mavzuni o'rganishda muhim manba hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda qabul qilingan qaror va farmonlarda tibbiyot xodimlari mehnatiga haq to'lashni takomillashtirish, qo'shimcha ustamalar joriy etish hamda davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmlarini rivojlantirish ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan [5]. Bu hujjatlar sog'liqni saqlash tizimida inson omiliga e'tibor kuchayib borayotganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, mavjud adabiyotlarda ish haqi siyosati va institutsional islohotlar ko'pincha alohida yo'nalishlar sifatida o'rganilgan bo'lib, ularning tibbiyot xodimlari mehnat faolligiga kompleks ta'siri yetarlicha tizimli tahlil qilinmagan.

Mazkur maqolada esa yuqoridagi tadqiqotlardan farqli ravishda rag'batlantirishning iqtisodiy mexanizmlari, ish haqi siyosati va mehnat faolligi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik yagona tizim sifatida qaraladi hamda amalga oshirilayotgan islohotlarning tibbiyot xodimlari motivatsiyasi va mehnat samaradorligiga ta'siri kompleks yondashuv asosida tavsiflanadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolani tayyorlash jarayonida ilmiy tadqiqotning qiyosiy taqqoslash, tahlil va sintez usullaridan foydalanildi. Tadqiqotda asosiy e'tibor qiyosiy taqqoslash usuliga qaratildi. Ushbu usul yordamida O'zbekiston sog'liqni saqlash tizimida tibbiyot xodimlarining ish haqi darajasi va rag'batlantirish mexanizmlari davlat va xususiy tibbiyot muassasalari amaliyoti, shuningdek, ayrim rivojlangan mamlakatlar tajribasi bilan qiyosiy jihatdan o'rganildi.

Qiyosiy tahlil natijasida ish haqi darajasi, qo'shimcha ustamalar va tibbiyot xodimlarining mehnat faolligi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik aniqlanib, rag'batlantirish tizimining mehnat motivatsiyasini shakllantirishdagi muhim o'zni ilmiy jihatdan asoslandi. Shu bilan birga, normativ-huquqiy hujjatlar hamda rasmiy statistik ma'lumotlar tahlil qilinib, olingan natijalar umumlashtirish usuli orqali tizimlashtirildi va ilmiy xulosalar chiqarishga xizmat qildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalarini shakllantirish jarayonida O'zbekiston sog'liqni saqlash tizimida tibbiyot xodimlari mehnat faolligini belgilovchi asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar kompleks tahlil qilindi. Xususan, ish haqi darajasi, rag'batlantirish ustamalar, kadrlar bilan ta'minlanganlik holati hamda davlat va xususiy tibbiyot muassasalari o'rtasidagi farqlarga alohida e'tibor qaratildi.

Statistik ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, so'nggi yillarda davlat tibbiyot muassasalarida ish haqi darajasini oshirish bo'yicha muhim choralar ko'rilgan bo'lsa-da, ushbu ko'rsatkichlarni mehnat faolligini yanada kuchli rag'batlantirishga xizmat qiladigan darajaga yetkazish imkoniyatlari mavjud. Ayniqsa, yuqori mas'uliyat va murakkab mehnat sharoitida faoliyat yuritayotgan shifokorlar uchun belgilangan ish haqi va qo'shimcha rag'batlantirish mexanizmlarini mehnat yuklamasi va kasbiy xavf darajasiga yanada moslashtirish zarurligi aniqlanadi.

Mazkur holat tibbiyot xodimlari mehnatini natijaga yo'naltirilgan, adolatli va differensial rag'batlantirish tizimini takomillashtirish orqali ularning mehnat faolligini oshirish hamda sog'liqni saqlash xizmatlari sifatini yanada yaxshilash uchun muhim zamin yaratadi.

1-jadval. Davlat tibbiyot muassasalarida ayrim lavozimlar bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi (2025-y.)

| Lavozim toifasi           | Oylik ish haqi (so'm) | AQSh dollarida (taxminan) |
|---------------------------|-----------------------|---------------------------|
| Umumiy amaliyot shifokori | 3 600 000             | 280                       |
| Yuqori toifali jarroh     | 4 900 000             | 350                       |
| Anesteziolog-reanimatolog | 4 400 000             | 320                       |
| O'rta tibbiyot xodimi     | 2 300 000             | 180                       |

Jadval ma'lumotlari tibbiyot xodimlari ish haqi lavozim va malaka toifalariga qarab farqlanishini ko'rsatadi. Shu bilan birga, umumiy ish haqi darajasi xalqaro amaliyot bilan qiyoslaganda nisbatan past bo'lib qolmoqda. Ushbu holat tibbiyot xodimlari mehnat faolligini yanada kuchaytirish, kasbiy qoniqishni oshirish hamda davlat sektorida kadrlar barqarorligini mustahkamlash zaruratini yuzaga keltiradi. Aynan shu omillar ayrim hollarda malakali mutaxassislarining xususiy tibbiyot muassasalariga o'tishiga sabab bo'layotganini ko'rsatadi.

Qiyosiy tahlil natijalari davlat va xususiy tibbiyot muassasalari o'rtasida sezilarli ish haqi tafovuti mavjudligini aniqladi. Xususi klinikalarda ish haqi darajasi davlat muassasalariga nisbatan o'rtacha 2-3



barobar yuqori bo'lib, bu xodimlarning mehnat motivatsiyasini oshirish, xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash hamda natijadorlikka yo'naltirilgan boshqaruvni shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Olib borilgan tahlillar tibbiyot sohasida mavjud vaziyatni tizimli va aniq tarzda yoritib berdi. Birinchidan, ish haqi darajasi tibbiyot xodimlari tomonidan sarflanayotgan mehnat hajmi, kasbiy mas'uliyat va yuqori xavf-xatar darajalariga to'liq mos kelishini ta'minlash imkoniyatlari mavjudligi aniqlandi. Ayniqsa, shifokorlar va o'rta tibbiyot xodimlari faoliyatida jismoniy va ruhiy yuklama yuqori bo'lishi ularning mehnatini yanada differensial va adolatli baholash zaruratini kuchaytiradi. Ushbu omillarni hisobga olish mehnat motivatsiyasini mustahkamlash va kasbiy qoniqishni oshirishga xizmat qilishi mumkin.

Ikkinchidan, amaldagi rag'batlantirish mexanizmlarining asosan lavozim, malaka toifasi va mehnat stajiga bog'langanligi aniqlanib, mehnat natijalari va xizmat sifati bilan bog'liqligini kuchaytirish ehtiyoji mavjudligi ko'rsatildi. Rag'batlantirishni natijaga yo'naltirish xodimlarning tashabbuskorligi, innovatsion yondashuvi va ish samaradorligini oshirish uchun muhim zamin yaratadi.

Uchinchidan, davlat va xususiy tibbiyot muassasalari o'rtasidagi ish haqi tafovutlari kadrlar harakatchanligini kuchaytiruvchi omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Xususiy sektorda mavjud qulay rag'batlantirish sharoitlari davlat muassasalarida kadrlar salohiyatini saqlab qolish uchun yangi iqtisodiy mexanizmlarni joriy etish zarurligini ko'rsatadi. Bu, o'z navbatida, davlat sektorida xizmatlar sifati va mehnat unumdorligini oshirishga xizmat qiladi.

To'rtinchidan, tahlil jarayonida kadrlar taqchilligi va hududiy farqlar muammosi ham aniqlanib, ayrim hududlarda tibbiyot xodimlari bilan ta'minlanganlik darajasini yaxshilash zarurligi asoslandi. Hududiy rag'batlantirish mexanizmlarini kuchaytirish aholining tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish va sog'liqni saqlash tizimida ijtimoiy muvozanatni ta'minlashga yordam beradi.

Umuman olganda, aniqlangan holatlar tibbiyot xodimlari mehnat faolligini oshirish uchun ish haqi va rag'batlantirish tizimini faqat alohida elementlar darajasida emas, balki kompleks yondashuv asosida takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi. Mehnat natijasiga yo'naltirilgan rag'batlantirish, hududiy va funksional farqlarni hisobga oluvchi adolatli ish haqi siyosatini shakllantirish hamda inson omiliga yo'naltirilgan iqtisodiy mexanizmlarni joriy etish sog'liqni saqlash tizimi samaradorligini oshirishning muhim sharti sifatida namoyon bo'ladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tahlillar va olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, tibbiyot muassasalari xodimlari mehnat faolligini oshirishda rag'batlantirish mexanizmlari hal qiluvchi ahamiyatga ega. So'nggi yillarda ish haqi va qo'shimcha ustamalarni oshirish bo'yicha muayyan chora-tadbirlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, ularni mehnat sarfi, kasbiy mas'uliyat darajasi va mavjud xavf-xatarlar bilan yanada mutanosiblashtirish imkoniyatlari mavjud. Davlat tibbiyot muassasalarida ish haqi darajasining asosan past va o'rta segmentda saqlanib qolishi mehnat motivatsiyasini mustahkamlash, kadrlar barqarorligini ta'minlash hamda sohada uzoq muddatli samaradorlikni oshirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Shuningdek, tahlillar rag'batlantirish tizimining asosan mehnat staji va malaka toifalariga bog'langanligi, mehnat natijalari va xizmat sifati bilan bog'liqligini kuchaytirish ehtiyoji mavjudligini ko'rsatdi. Mehnat faoliyatining samaradorligi va tashabbuskorlikni oshirish uchun rag'batlantirish mexanizmlarini natijaga yo'naltirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Aniqlangan holatlarni hisobga olgan holda quyidagi taklif va tavsiyalar ilgari suriladi. Birinchidan, tibbiyot xodimlari ish haqi tizimini mehnat natijalari bilan uzviy bog'lagan holda takomillashtirish, ya'ni xizmat sifati, bajarilgan ish hajmi va kasbiy murakkablik darajasini inobatga oluvchi differensial rag'batlantirish mexanizmlarini joriy etish maqsadga muvofiqdir. Ikkinchidan, yuqori mas'uliyat va xavf bilan bog'liq lavozimlar uchun maxsus kompensatsiya va bonus to'lovlarini kengaytirish orqali mehnat faolligi va kasbiy qoniqishni oshirish zarur.

Uchinchidan, davlat va xususiy tibbiyot muassasalari o'rtasidagi ish haqi tafovutlarini bosqichma-bosqich qisqartirishga qaratilgan iqtisodiy mexanizmlarni ishlab chiqish davlat sektorida malakali kadrlarni saqlab qolish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu bilan birga, rag'batlantirish tizimini shaffof va aniq mezonlar asosida tashkil etish mehnat munosabatlarida ishonchni mustahkamlab, noxolis holatlarning oldini olishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, mehnatga yarasha adolatli va natijaga yo'naltirilgan rag'batlantirish tizimini shakllantirish tibbiyot xodimlari mehnat faolligini oshirish, sog'liqni saqlash xizmatlari sifatini yaxshilash hamda tizimning institutsional barqarorligini ta'minlashning muhim sharti sifatida namoyon bo'ladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Abdullaev A.A. (2020). Sog'liqni saqlash tizimi iqtisodiyoti va uni moliyalashtirish masalalari. Toshkent: Iqtisodiyot.
2. Abdulazizovich X.U.B. (2023). Moliyaviy aktivlar hisobini yuritishda xalqaro standartlar qoidalarini qo'llash masalalari [Ilmiy monografiya]. Toshkent.



3. International Labour Organization. (2018). Public service motivation and pay systems in the health sector. Geneva: ILO.
4. Isomuxamedov A. (2025). Kichik biznes subyektlarida xarajatlar va daromadlar hisobini tashkil etish va tahlil qilish. In "O'zbekiston-2030: Innovatsiya, fan va ta'lim istiqbollari" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari (Vol. 1, No. 2, pp. 65-67).
5. Perouse S. (2019). Health sector reforms and informal payments in Uzbekistan. Washington, DC: George Washington University.
6. President of the Republic of Uzbekistan. (2017-2025). Sog'liqni saqlash tizimini isloh qilishga oid qaror va farmonlar to'plami. Toshkent.
7. World Health Organization. (2016). Global strategy on human resources for health: Workforce 2030. Geneva: WHO.
8. Xolmirzayev U.A. (2023). Debitor qarzlarini aylanishi tahlilini takomillashtirish masalalari. [Ilmiy maqola].

# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2025. № 12**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: №095310.**

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod  
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



[t.me/yait\\_2100](https://t.me/yait_2100)